

## GADOIY IJODINING MAVZU VA G‘OYALAR OLAMI

**Sharibjonova Xurshidaxon Anvarjon qizi**

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) kafedrasida 2 – kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Gadoiy o‘zbek g‘azalchiligiga ulkan hissa qo‘shgan shoirlardan sanaladi. Shoir ijodi mavzu va g‘oyalar olami kengligi bilan ajralib turadi. Gadoiy ijodida hijron mavzusi asosiy o‘rinni egallaydi.

**Kalit so‘zlar:** Gadoiy, g‘azal hijron, yor, ko‘ngil, oshiq, mashuqa, Lutfiy, muhabbat, Azhob, kofiri Haybar, Makka, xurmozor.

### АННОТАЦИЯ

Гадой – один из поэтов, внесших большой вклад в узбекскую газельную поэзию. Творчество поэта отличает широта мира тем и идей. Тема эмиграции занимает центральное место в творчестве Гадои.

**Ключевые слова:** Гадай, газель хиджран, друг, сердце, любовник, любовница, Лютфи, любовь, Ажаб, неверный Хайбар, Мекка, финиковая пальма.

### ABSTRACT

Gadoi is one of the poets who made a great contribution to Uzbek ghazal poetry. The poet's work is distinguished by the breadth of the world of themes and ideas. In Gadoi's work, the theme of emigration occupies the main place.

**Key words:** Gadoi, ghazalhijron, brother, heart, lover, mistress, Lutfi, love, Azhab, infidel Khaibar, Mecca, date palm.

Gadoiy o‘zbek g‘azalchiligi, uning va janrlari va mavzu ko‘lamining kengligi mumtoz adabiyotimizni ilg‘or ijtimoiy g‘oyalar bilan boyishiga xizmat qildi. Shoirning tug‘ilgan hamda vafot etgan vaqtini aniq ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar yo‘q.

Gadoiy hayoti va ijodini bayon qilishda Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan shoir haqidagi ma‘lumotlar hamda o‘z asarlarida hayotiga avtobiografik ma‘lumotlar asosiy manba hisoblanadi.

Shoirning haqiqiy ismi, qanday oiladan kelib chiqqanligi noma‘lum bo‘lib, “Gadoiy - Gado esa uning adabiy taxallusidir” Navoiy asarlarida keltirilgan ma‘lumotlarga tayangan holda Gadoiy XV asrning boshidan oxirigacha umr ko‘rgan deb tahmin qilish mumkin. Gadoiy butun umri davomida oddiy hayot kechirdi. Bunga shoirning o‘z ijodida zamonasidan o‘z taqdiri qismatidan shikoyat qilib yozilgan she‘rlari dalil bo‘la oladi. Ammo shoir qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tishga harakat qildi. Manbalarning ma‘lumot berishicha, Gadoiy Xurosonning yirik madaniy – adabiy ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy markazi bo‘lgan Xirot shahrida yashaydi. Uning hayoti Hirotdagi adabiy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Gadoiy bu adabiy muhitda samarali ijod qiladi. Jumladan, shoir o‘z devonida Hirotni ko‘p o‘rinda madh etadi. Gadoiy o‘zining buyuk zamondoshi , o‘z davrining malikul-kalomi Lutfiy va uning ijodi bilan yaxshi ma‘lumotga egaligini ta’kidlab o‘tadi.

Gar inoyat bo‘lsa haqdin dog‘i sultondin nazar ,

Bu Gadodek Lutfiy kim bo‘lg‘ayki, Salmon bo‘lg‘ay.

Shoir ijodiy merosining asosiy qismini g‘azallar tashkil qiladi. G‘azallari 5 baytdan 9 baytgacha bo‘lib, asosiy qismi 5 va 7 baytli g‘azallardan iboratdir.

Gadoiy o‘z salaflari bo‘lgan Rudakiy, Sa‘diy, Xusraf Dehlaviy, Kamol Xo‘jandiy, Xofiz kabi shoirlarning ishqiy g‘azallari bilan yaxshi tanish bo‘lib, ular shoirning ijodiy faoliyatiga tasir ko‘rsatadi.

Gadoiy g‘azallarining bosh mavzusi ishq –muhabbatdir. O‘n sakkiz ming olamning gultoji bo‘lgan inson muhabbati asosiy o‘ringa olib chiqiladi. Shoir muhabbat tuyg‘usini badiiy jihatdan ta’sirli kuylaydi. Shoir o‘z davri orasida keng va chuqur yorqin, rang –barang aks ettiradi.

Gadoiy oshiqning yorga ko‘ngil qo‘yish holatlarini ham go‘zal tasvirlab beradi. Ko‘zi o‘tlikni haddingni bilmay sevib qolding. Ishq o‘ti seni qancha kuydursa ham kam senga deydi. Bunda o‘t so‘zi ko‘p ma‘noli so‘z sifatida qo‘llanilib go‘zal jozibani hosil qiladi.

Ul ko‘zi o‘tluqni sevdung o‘z hadingni bilmayin,  
Ishq o‘ti har necha kuydursa hanuz kamdur sanga.

Gadoiy o‘z g‘azallarida yorning tasvirini yaratishda daraxtlardan ham foydalanadi.

Zulfu qaddingni xayoli ko‘zum uzra ey pari,  
Shohi sunbuldur teng o‘log‘on niholi tol ila,

Gadoiy bir g‘azalida yorning bir bora kelishiga jonini qurbon qilib, boshini yo‘liga poyandoz qilishini ta’kidlab o‘tadi.

Jonumi qurbon qilay, boshimni poyandoz ham,  
Gar qadam ranja qilib bir kelgasen mehmon manga.

Gadoiy g‘azallarini talqin qilar ekanmiz, unda arabcha so‘zlardan mohirona foydalanligiga guvoh bo‘lamiz.

Dilraboliq fannida sohibqiron sen yo habib,  
Chashm ichinda nuru ham jism ichra jonsen ey habib.

Gar dast bersa xush mutribedur alassabox,  
Mahbubi gul‘uzorila rayhon ichinda roh.

Gadoiyning bir g‘azalida oshiqning holati shu qadar kuchli tasvirlanadiki, shoir tasvirda kofiri Xaybar obrazidan foydalanadi.

Ul martabag‘a yeti firoqingda ishimkim,  
Jonimg‘a rahm etadur kofiri Xaybar.[2.46]

G‘azal tahliliga yuzlanadigan bo‘lsak, oshiq yor firoqidayetib boradiki, hatto xaybar kofirlari uning bu holiga rahm qiladi. Shoir nima uchun kofir Xaybar obrazidan foydalanadi? Xaybar kofirlari kim edi?

“Xaybar” so‘ziga to‘xtalib o‘tsak, Xaybar so‘zi ibroniycha so‘z, bo‘lib qal‘a degan ma‘noni anglatadi. Ushbu Xaybar qal‘asi Madina shahrida joylashgan bo‘lib,

bani Naziyr nomli yahudihlar ushbu qal’ada yashardilar. Xaybar qal’asi yana yettita qal’a keng ekinzor va xurmozorni o’ichiga olgan vauning ash- Shurayf shahri bo’lgan. Xaybar yahudiylarni endigina shakllangan islom hukumatiga qarshi fitna va uydirma uyushtirish markaziga aylangan edi va bu qal’ada yashovchi yahudiylar bir necha marotaba hujum qilishda islom dushmanlari bilan hamkorlik qilishgandi, ayniqsa Azhob urushida Makka mushriklari qo‘shinini kuchaytirishda muhim ro‘l o‘ynaganlar.

Shoir g‘azallarida oshiq holatini go‘zal o‘xshatishlar bilan tasvirlaydi jumladan bir g‘azalida bunday deydi:

Mening qon yoshli ko‘zim to jamolingdin yiroq o‘ldi,

Ko‘nguling berda, ey jon, yuzing naqshi musavvirdur .

Shoir o‘z zamonasining shu qadar bilimdoni bo‘ladiki, u o‘z g‘azalida arabcha, forsha, tojikcha so‘zlarni yonma –yon go‘zal ifoda yaratadi .

Lavhashalloh, avvalo zamon vasli ayyomi tarab,

Habbazo, ul ayshu ,zavqu nozu no‘shu giridor.

Lavhashalloh- arabcha Allohdan qo‘rqsa

Habbazo–(fors- tojikcha) – qanday yaxshi ofarin – ma’nosidagi nido.

Gadoiy g‘azallarida hijron mavzusi ham asosiy o‘rin egallaydi. Oshiqning hijrondagi holatlari turli go‘zal bo‘yoqlar bilan tasvirlanadi .

Yuragimni yordi hijronning jafo tig‘i bila,

Marhami oxir ne bo‘ldi netti bordam yora – yor.

Hajring eliding jong‘a tamattu bu yurishda,

Yuz mehnatu g‘am bo‘lmadi hamroh darig‘o.

Gadoiy o‘z g‘azalida hijron motivini asosiy unsur sifatida ham ko‘rsatib o‘tadi.

Oshiq uchun hijrondan ortiq g‘am yo‘qdir.

Ey ko‘ngul dilbar xayoli chunki hamdamdur senga,

Vodiyi hijron ichinda o‘zga ne g‘amdur sanga.

G‘azalda shoir firoq elining mubtalosiman Allohdan bo‘lak meni hech kim halos eta olmaydi.

Mundoqki men firoq elining mubtalosimen,

Hech kim meni halos eta bilmas, magar xudo. [2.19b]

Gadoiyning quyidagi baytida hijron otida jonim bilan ko‘nglimni o‘rtadilar bu shunday azobki, Miskin Gadoiy uchun qiyomat azobiga teng azob ekanligini mohirona tasvirlaydi.

Hijron otig‘a o‘rtadilar jon ila ko‘ngul,

Miskin Gadog‘a bu ne qiyomat azob erur.[2.35]

Yana bir g‘azalida Gadoiy hijronida g‘unchadek bag‘rim tola qon bo‘ldi deydi.

Xor o‘lub hijronga u tugalduk yuzingning shavqidin,

G‘unchatek bo‘ldi bu bag‘rim to‘la qon andoq durur.[2.37]

Shoir bir kun visol davlatiga sabr ila yetisharmen naylayki, hijron meni zo‘r o‘ldirdi.

Davlati vaslingni bir kun topqay erdim sabr ila,

Naylayinkim sa‘y etib hijron meni zor o‘lturur,[2.47]

Gadoiy yana bir g‘azalida hijronning jafo tig‘i yuragimni yordi deydi.

Yuragimni yordi hijronning jafo tig‘i bila,

Marhami oxir ne bo‘ldi netti birdan yora- yor.

Gadoiy firoqi vodiysida meningdek hijronida qolgan dilsiz topilmaydi deyiladi.

Firoqing vodusida hech topilmas,

Meningtek bir yana mahjuri bedil.

Yor dardi-u hasrat bilan hijron o‘tiga meni solib, ko‘ngilni rohat yashashdan judo qildi.

Dardu hasrat birla hijron o‘tina solib meni,

Ishratu aysh tana‘umdin judo qilg‘an ko‘ngul.

G‘azalida hijron tuni qancha uzun bo‘lsa sahari ham oxiri bo‘ladi deydi shoir.

Hajr tuni necha necha uzun bo‘lsa ,

Bo‘lg‘usi bordur oxiri sahari.[2.140]

Yana bir g‘azalida shoir hijron g‘ami uning hasta ko‘nglini halok etganini bir chora qil deb aytadi.

Ey halovatliq dudoqing xasta xasta ko‘nglum marhami .

Charaye qilkim, halok etti meni hijron g‘ami.

Shoir yorga murojaat qilib, kimga dardi holimni aylay, qanday tadbir qilay zolim yorning firoqi meni boshdan oyoq o‘rtadi.

Kimga aytay dardi holimni ne tadbir aylayin,

Kim meni boshtin oyoq zolim firoqing o‘rtadi

Shoir “charx jafosi ro‘zg‘or javri”dan azob chekib qalbiga ozor yetganligi holi parishon bo‘lganligi baxtsiz ekanligidan shikoyat qilish orqali o‘z zamonasiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

Ey charxi sitamgar, meni sargashtani zinhor,

Rahm ayla, dag‘i ul mahi tobondin ayirma.

Oshiq yorga qarata shunday deydi begim oy yuzingni orzusida yuz tuman hasrat bilan bu teskari falakdek sargardon bo‘lib yuribman.

Oy yuzingning orzusinda yuz tuman hasrat bila.

Charxi gardundek bo‘libman asru sargardon.

Yuragim qat-qat jafodin g‘unchadek, qon bo‘ldi afsuski navbahorimdan bir kun ham vafo ko‘rmadim.

Yurokim qat- qat jafodin g‘unchadek qon bog‘ladi,

Ko‘rmadim bir kun vafo ul navbahorimdan darig‘

U g‘azallarida ko‘plab hadislar, hikmatli so‘zlardan ko‘p o‘rinlarda qo‘lladi.

Qur‘oni Karimni Kalimolloh bilan almashtirib qo‘llab, go‘zal jozibani yaratadi.

“Kuntu kanzan” sirrini olamda izhor aylagan,

Ul abir omiz zulfi atr soyingdur sening.

Ushbu g‘azalda keltirilgan kuntu kanzan qanday ma‘noda qo‘llanilishiga e‘tibor qarataylik. Navoiy asarlari lug‘atida keltirilishicha, “Kuntu kanzan”-“Men xazinaman”deb boshlanadigan hadisga ishora. Endi ushbu hadisga to‘xtalib o‘tsak, “Kuntu kanzan xafiyyan fa xalaqtun xalqa”(Men maxfiy bir ganjina edim, mening Tangriligimni bilguvchi hech kim yo‘q edi, xaloyiq yaratdim. Menda foyda olsinlar)

deb.Odam Allohni va u yaratgan olamni anglash jarayonida o‘zi ham taraqqiy etadi odamning yuksalishi uning Allohni qanchalik teran anglashiga bog‘liq.

Quyidagi g‘azallarida esa Gadoiy Kalimolloh so‘zi orqali yor tasvirini go‘zal o‘xshatishlar bilan qo‘llaydi.

Soching see‘boni kirdi jon cherikin,  
 Ajab yo‘qkim, Kalimulloh sensen.  
 Mu‘jizoti husn ila har dam Kalimullohdek,  
 Jon cherikin qirarul zulfi Su‘bon shox-shox.  
 Tavri ishqingda manga kashf o‘ldi bu asrorkim,  
 Sen Kalimullohsen, ul zulfi purham ajdah.

Ba‘zi o‘rinlarda Gadoiy Kalimulloh o‘rniga tasvirni yanada badiiylashtirib, jozibadorligini ta’sirchanligini oshirishda muqaddas kitobimizning yana bir nomi Mus’hafdan ham unumli foydalanadi.

Mus’hafi yuzungni tafsir etgali piri Gado,  
 Oy yuzingning jovi yangliq tutti olamni so‘zi.

Gadoiy Nuh(a.s) to‘foni haqida gapirib o‘tib, oshiqning ko‘z yosh-u ohlari Nuh (a.s) to‘fonidan ham oshib ketdi , oqibatda bu mojarro yergacha yetib keldi.

Nuh to‘fonidin oshti ko‘zlarimning seli oh,  
 To ne yerga yetgusidir oqibat bu mojarro.[2.23]

Gadoiy yorning yuzini ta’riflashda gul, quyosh, oy timsollaridan ham unumli foydalanadi.

Ul quyosh yuzluk nigorimdin ayurg‘ungdir meni,  
 Vah bizning birla ne dushmanliqdur, ey gardun, yano.[2.24]

Gul yuzungni ko‘rmaganda erur erdi lofi husn,  
 Tal’ating ko‘rgach ravon bo‘ldi hijolattin gulob.[2.26]

Oy yuzingdin munfail gar bo‘lmadi ko‘kta quyosh.

Bas nedindur kecha – kunduz sorg‘orib bu iztirob.[2.26]

Muntahodir oy yuzing qoshinda ul cho‘lpon ko‘zing,  
 Kim, quyosh yonunda erur matlai axtar g‘arib.

Gadoiy shunday deydi: begim sen qanday ajoyib jonsanki, sening yuzing oldida barcha go‘zallarning chiroyli surati bejon bo‘lib qoladi :

Ne ajab jonsen begimkim, orazingning onlida,  
Barcha xo‘blarning jamoli surati bejon erur.

Shoir yorni shunday go‘zal ta’riflaydiki, ul malaksiymo agar sanam hur pari emasdir, balki odam naslining barcha go‘zalligi unda mujassamdir

Ul malak siymo sanam gar hur emastur,  
Bas nedur odamdin oning yuzlari.

Shoir shunday yozadi:

Agar seni oy yuzingni dunyoda bir bor ko‘rsam agarda oladigan bo‘lsam ham zarra armonim qolmaydi.

Kim ko‘rmish bo‘lsa bir kun oy yuzingni dunyoda,  
O‘lsa dog‘i bil yaqinkim zarrayi armoni yo‘q.

Gadoiy yana bir g‘azali tabiatdagi holatdan juda ajoyib tasvir yaratadi ya’ni tonggi yengil shabbodani kuzatadigan bo‘lsak, inson tanasiga ajoyib bir yengillikni huzur halovatni baxsh etadi. Shoir mana shu holatni jon bag‘ishlaguvchi deb ta’riflaydi. Ya’ni tonggi shabboda o‘z lutfi bilan ham jon baxsh etadi. Valekin yordan lutf xabari kelmasa tonggi mayin shabboda ham menga baxsh eta olmaydi.

Tong nasimi lutf ila har nechakim jonbaxsh erur,  
Bo‘lmag‘ay hargiz vale payg‘ami jonondin latif.

Gadoiy mohir so‘z ustasi. Shoir g‘azallari badiiyligi tasvir mahoratining yuksakligi bilan ajralib turadi. Gadoiy ko‘p o‘rinlarda yorni tavsiflashda turli badiiy to‘qimalardan foydalanadi. G‘azalning ta’sirini yanda oshirishda arabcha so‘zlardan, hikmatlardan Qur’oni Karimni boshqa nomlaridan foydalanadi. G‘azallarida badiiy san’atlardan ham mohirona foydalangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (4tomlik). – T.:Fan, 1984.
2. Gadoiy. Devon/ Nashrga tayyorlovchi: Ahmadxo‘jayev E. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at, 1973. – 144 b.